

MAKTAB VA MAKTABGACHA TEXNOLOGIK TA'LIMDA, UZVIYLIKNI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI

G'.ABDUQODIROV

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
Pedagogika universitetining "Texnologiya va
professional ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti.
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
Pedagogika universitetining talabasi
Tog'ayeva Salomat Ixtiyorovna.*

АННОТАЦИЯ

Ta'limda fan va ishlab chiqarish, davlat va jamiyat bilan o'zaro mavjud bog'liq tomonlari yoritib berilgan. Davlat va jamiyat dasturi bo'yicha ishlab chiqarishni kadrlarga bo'lgan ehtiyojini, uning sifatiga talablarni belgilovchi buyurtmachilar bilan amalga oshirilayotgan ishlar. Ta'lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim tamoyillari aks ettirilgan

АННОТАЦИЯ

Раскрыты вопросы взаимосвязи системы Технодогического непрерывного образования науки, производства и общества. Даются выводы проводимой работы по разработке предъявляемых требований к специалистам исходя из необходимых условий в свете Национальной программы по подготовке кадров и заказчиков. Основные принципы обучения и воспитания в условиях развития общества.

SAMMARY

Disclosed with the relationship of continuous education of science production and society .Given the findings of ongoing work on the development of a claim against a specialist on the basis of the conditions necessary in the light of the national program for training and education in terms of social development.

Ta'limda fan va ishlab chiqarish davlat va jamiyat bilan o'zaro bog'liq. Ta'lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omildir. Chunki, ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi ijtimoiy buyurtmasini bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'lim tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha ta'riflaydi: «Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi».

Ta'lim mazmunini tashkil etish ilmiylik, faollik, tushunarliklik, ta'lim va tarbiyaning birligi, ko'rgazmalilik va muntazamlilik, uzviylik, izchillik kabi didaktik tamoyillarlar asosida amalga oshiriladi. Ana shu tamoyillarlardan biri ta'lim tizimida uzviylik bo'lib, u maktab va maktabgach texnologik ta'limni tashkil etishda yetakchi tamoyillarlardan hisoblanadi. Maktab va maktabgach texnologik ta'limda uzviylik tamoyillari o'tilgan o'quv material bilan kelgusida o'tiladigan o'quv material o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni taqozo etadi. Bu tamoyillarning mohiyatiga ko'ra o'tilgan o'quv material yangi o'tilishi kerak bo'lgan o'quv material uchun asos yaratadi. Bunda maktab va maktabgach texnologik ta'lim tizimining bosqichlari va kurslarida bilimlar mantiqiy jihatdan bir-birini to'ldirib borishi, o'quv predmetlari mazmuni uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashga qaratilishi, o'quv materiallarining bayonida ma'lum ketma-ketlik, yaxlit tizim bo'lishi hamda mavzularning bir-biriga mantiqan bog'liqligi, ularning ketma-ketligi ta'lim mavzularining yuqori bosqichlarda chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan holda berilishi hisobga olinadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida uzviylashgan fan dasturlarining mavjud bo'lishi va uni o'quv jarayoniga joriy qilinganligi katta ahamiyatga ega.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimida metodik ta'minotni: Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarining ahamiyati, ta'lim sifatini oshirishda, uzluksiz ta'limni takomillashtirishda uzviylashgan dasturlarning yaratilishi va izchillik bilan amaliyotga tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab va maktabgach texnologik ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim turlari uzluksizligini takomillashtirish va fanlararo uzviylikni ta'minlashdir. Oliy va maktab va maktabgach ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikning ta'minlanishi – ta'limning keyingi bosqichi mazmuni avvalgi bosqichdagi mazmunni bevosita davom ettiribgina qolmay, balki mazmun jihatdan uzviy bog'langan tarzda, ayrim fanlarni kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan holda takomillashtirishi va boyitishida hamda fanlararo uzviylikning ta'minlanishi asosida noo'rin takrorlanishlarga chek qo'yishida o'z ifodasini topadi.

Oliy ta'lim tizimida mehnat bozorida o'z o'rnini topadigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini ko'p jihatdan umumkasbiy, texnologik va maxsus fanlarni yuqori darajada o'qitish belgilaydi.

Umumkasbiy fanlar fundamental fanlar hisoblanib, umumta'lim fanlar negizida o'qitiladi va maxsus fanlar yo'nalishidagi bilimlarni kengaytiradi, chuqurlashtiradi hamda shu maxsus fanni o'rgatish uchun asos yaratadi. Maxsus fanlarni o'qitish amaliy bilim kuchli va ishlab chiqarishga bogliq bilimlar bilan boglangan bo'lganligi, o'zlashtirilgan nazariy-amaliy bilimlari asosida ishlab chiqarish muammolarini hal qilishga yo'nalganligi sababli o'ziga xoslikni namoyon etib, o'quv maqsadlarini belgilashda ham o'ziga xoslikni talab etadi.

O'quvchi va talabalarni kasb-hunarga yo'naltirishda maxsus va texnologik fanlar butunligicha (mazmuni va bilimi darajasi bo'yicha) shu kasb xususiyatiga mos tushishi, faoliyat turlari to'liq yoritilishi kerak.

Umumkasbiy ,texnologik va maxsus fanlardan ta'lim mazmunini belgilashni, o'quv jarayonini tashkil etishni o'qitishning metodik tavsiya va talablari asosida amalga oshiriladi.

Fan dasturlaridagi mavzularning mazmuni va tuzilishi o'quv materiallarining mantiqiy ketma-ket qo'yilishini, o'qitish metodlarini, didaktik qo'llanmalar xarakterini belgilaydi. O'qitish metodlari uning elementlari va ular orasidagi bogliqliklarni o'rganishda unga tizimli yondashish zarurligini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Oliy va maktab va maktabgach ta'lim tizimida umumkasbiy , texnologik va maxsus fanlarni o'qitishda uzviylikni ta'minlashga quyidagi tamoyillarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

- 1). Maqsadga yo'naltirish tamoyillari;
- 2). Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyillari;
- 3). O'zaro aloqadorlik tamoyillari;
- 4). Mukammallik tamoyillari;
- 5). Izchillik tamoyillari.

Bu tamoyillarlar metodik tizim komponentlarini amalga oshirishda yuzaga keladi va uzviylikni tizimli amalga oshirishda asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Oliy va maktab va maktabgach ta'lim tizimida uzviylik tamoyillari avvalgi o'tilgan o'quv material bilan kelgusida o'tiladigan o'quv material o'rtasidagi mantiqiy boglanishni taqozo etib, ta'lim maqsadi, mazmuni, ta'lim metodi va vositalarini aniqlashda hamda talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Oliy va maktab va maktabgach ta'lim tizimida umumkasbiy va maxsus o'quv fan dasturlarini uzviylashtirishni ilmiy-uslubiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, jamiyatlardagi demokratik o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalarini inobatga olgan holda uzviylashtirish o'quv fan dasturlari yaratiladi. Ta'lim tizimida uzviylashtirish fan dasturlarining qo'llanilishi avvalambor noo'rin takrorlanishlarga barham beradi, talabalarga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni tizimlashtirilib, ularning bilimlaridagi bo'shliqlarni to'ldirishda hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilarining kasb egallash va kasbiy qobiliyatlarini takomillashtirish imkoniyatlarini yanada oshirishda ta'limning uzluksizligini barqarorlashtirish, umumta'lim va kasbiy tayyorgarligini doimo yangilab hamda chuqurlashtirib turish, mazkur ta'lim jarayonida uzviy ketma-ketlikka

erishish, ularning kasbiy mahoratini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida oshirib borish kabilar asosiy omil bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Ana shunday muhim ishlarni amalga oshirishda oliy ta'lim tizimida uzluksizlik va uzviylikni yanada takomillashuviga xizmat qiluvchi yangi uslubiy shakl, vosita va tajribalarni kengroq jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 6108-son Farmoni
2. Texnologik ta'lim praktikumi o'quv qo'llanma G'. Abduqodirov.T. 2012yil. "Sharq" nashryoti
3. Texnologik ta'lim praktikumi darslik G. M .Anarkulova. G'. Abduqodirov. va boshqalar T 2018 yil
4. G. Abduqodirov, S.A.Baltabayev, A.N.Abdullayev TECHNOLOGY OF ORGANIZATION OF EDUCATIONAL WORKSHOPS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION. Eur. Chem. Bull.
5. 2023, 12 (Special Issue8),255-261.Scops ISSN2063-5346 doi: 10.48047/ecb/2023.12.si8.018
6. ABDUQODIROV, G. (2019). PRINCIPLES OF IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TECHNOLOGY EDUCATION IN CONTINUING EDUCATION. European Journal of
7. Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(3).